

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRINING  
BUYRUG'I

**SUG'URTALOVCHILAR VA QAYTA SUG'URTALOVCHILARNING TO'LOV  
QOBILIYATI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan  
davlat ro'yxatidan o'tkazildi]**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-soni "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida** va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagqi PQ-2847-soni qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi **nizomga** muvofiq buyuraman:"

*(muqaddima O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2017-yil 7-iyuldagagi 97-soni (ro'yxat raqami 1806-4, 17.07.2017-y.) buyrug'i tahririda — O'R QHT, 2017-y., 29-son, 714-modda)*

1. Illova qilinayotgan Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi **Nizom** tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2006-yil 8-fevraldagagi 10-soni "Sug'urtalovchilarning alohida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlar, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p hajmi va to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi **buyrug'i** (2006-yil 22-aprel, ro'yxat raqami 1565 — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 17-son, 144-modda) o'z kuchini yo'qtgan deb hisoblansin.

3. Ushbu buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab o'n kundan keyin kuchga kiradi.

**Moliya vaziri R. AZIMOV**

Toshkent sh.,  
2008-yil 22-aprel,  
41-son

Moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan  
TASDIQLANGAN

**Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi  
NIZOM**

Mazkur Nizom "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-soni "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **qaroriga** (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15 son, 158-modda) muvofiq, sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) to'lov qobiliyati normativlarini va ularni aniqlash tartibini, sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarni belgilaydi.

**I. Umumiy shartlar**

1. Mazkur Nizom davlat ijtimoiy sug'urta tashkilotlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

2. Mazkur Nizom maqsadlarida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar:

**sug'urtalovching (qayta sug'urtalovching) aktivlari** — sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) nazoratida bo'lgan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyati natijasida olingan iqtisodiy resurslar;

**Davsug'urtanazorat** — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi;

**qayta sug‘urta qilish shartnomasi** — shartnomma bo‘lib, unga muvofiq, qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urta qilish shartnomasida kelishilgan to‘lov (qayta sug‘urta mukofoti) evaziga qayta sug‘urta qilish shartnomasi shartlari asosida qayta sug‘urta qildiruvchining sug‘urta shartnomasi bo‘yicha aniqlangan sug‘urta tovonini (sug‘urta summasini) to‘lash majburiyati bilan bog‘liq xarajatlarini to‘liq yoki qisman qayta sug‘urta qildiruvchiga (yoki u tomonidan ko‘rsatilgan boshqa shaxsga) qoplab berish majburiyatini oladi;

**hisoblangan sug‘urta mukofoti** — pul mablag‘lari qachon olinganligidan qat’i nazar, sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta mukofoti (qayta sug‘urta mukofoti);

**hisoblangan sug‘urta tovoni** — pul mablag‘lari qachon to‘langanligidan qat’i nazar, sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta tovoni;

**qayta sug‘urta qilish** — sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lash xavfi uning tomonidan to‘liq yoki qisman boshqa sug‘urta lovchida (sug‘urta lovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta lanishi;

**qayta sug‘urta qildiruvchi** — o‘ziga qabul qilgan tavakkalchiliklarni qayta sug‘urtaga beruvchi sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi);

**qayta sug‘urtalovchi** — faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega yoxud sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs, o‘zi joylashgan davlat qonunchiligiga muvofiq, qayta sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega chet el sug‘urta tashkiloti;

**sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) to‘lov qobiliyati** — sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) o‘z moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olish qobiliyati. To‘lov qobiliyatining asosi bo‘lib, shakllantirilgan ustav kapitali, yetarli sug‘urta zaxiralari, shuningdek qayta sug‘urta qilish tizimining mavjudligi hisoblanadi;

**bog‘liq shaxslar** — sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) bilan alohida munosabatlarga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar, ya’ni:

sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tarkibidagi har qanday shaxs, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari;

sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) ustav kapitalida 20 foizdan ortiq ulushga ega har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, yoki ushbu yuridik shaxsnинг har qanday rahbari yoki yirik aksiyadorlari (ta’sischilari), shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;

sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) faoliyatini qonunchilikka muvofiq nazorat qiluvchi yuridik shaxslar va ularning boshqaruvchilari;

sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) ulushi ustav kapitalida 20 foizdan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ushbu yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari va ularning yaqin qarindoshlari.

Yuqorida ko‘rsatilgan shaxslardan biri bilan bog‘liq shaxs ularning har biri bilan bog‘liq shaxs bo‘lib hisoblanadi;

**o‘zida qoldirilgan ulush** — sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan har bir alohida sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi bo‘yicha qabul qilingan, qayta sug‘urtaga o‘tkazish man etilgan sug‘urta majburiyatları hajmi;

**sug‘urta mukofotlari** — so‘m yoki chet el valyutasida to‘lanadigan, hisoblash tartibi va miqdori sug‘urta shartnomasi bilan belgilanadigan, sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urtalovchi ga to‘lanadigan badallar;

**to‘lov qobiliyati marjası** — sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) aktivlari va u tomonidan qabul qilingan sug‘urta majburiyatları o‘rtasidagi mutanosiblik;

**hisobot davri** — 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan kalender yil. Bunda mazkur Nizomga muvofiq hisob-kitoblar va ma’lumotlar tuziladigan hisobot davri deb, hisobot yilining 1-yanvaridan har bir choragini oxirgi kalender kunigacha bo‘lgan davr qabul qilinadi;

**hisobot sanasi** — mazkur Nizomga muvofiq hisob-kitoblar va ma’lumotlar tuziladigan hisobot davrining oxirgi kalender kuni;

**alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlar** — sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan har bir alohida sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi bo'yicha qabul qilingan va hisobot sanasida amalda bo'lgan sug'urta majburiyatlar;

**sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) majburiyatlarini jamining miqdori** — sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan beshta eng yirik alohida tavakkalchiliklar (sug'urta shartnomalari) bo'yicha qabul qilingan va hisobot sanasida amalda bo'lgan sug'urta majburiyatlarining hajmi;

**o'z mablag'larini manbalarining summasi** — hisobot davri oxiriga, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) balansi passiv qismining birinchi bo'limi bo'yicha jami;

**sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) rahbari** — qonunchilik va sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ta'sis hujjatlariga muvofiq tayinlanishi yoki saylanishi natijasida, tuzilgan mehnat shartnomasiga asosan sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) yagona ijro etuvchi organi bo'lib hisoblanadigan yoki sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) kollegial ijro etuvchi organi ustidan boshqaradigan jismoniy shaxs.

3. To'lov qobiliyati normativlari quyidagilardan iborat:

to'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi;

alohida tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori;

sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) majburiyatlarini jamining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori.

4. Sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) to'lov qobiliyati ko'rsatkichini aniqlash uchun oxirgi hisobot sanasiga sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari, shuningdek, hisob-kitoblar yo'li bilan aniqlanadigan ma'lumotlarda foydalaniladi.

5. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) to'lov qobiliyatining ko'rsatkichi bo'lib, ular tomonidan mazkur Nizom bilan belgilangan to'lov qobiliyati normativlariga, sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinishi hisoblanadi.

## **II. To'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi**

6. To'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi 1 dan kam bo'lmasligi shart.

7. To'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi to'lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdorini to'lov qobiliyati marjasining normativ miqdoriga bo'lgan nisbatiga teng bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\frac{\text{TQMEN}}{\text{TQMHM}} = \frac{\text{TQMN}}{\text{TQNM}}$$

TQMEN — to'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi;

TQMHM — to'lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdori;

TQNMN — to'lov qobiliyati marjasining normativ miqdori.

8. Umumi sug'urta sohasida yoki faqat qayta sug'urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun to'lov qobiliyati marjasining normativ miqdori bo'lib, quyidagi uchta miqdorning eng kattasi hisoblanadi:

*Oldingi tahririga qarang.*

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchi uchun belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori;

(8-bandning ikkinchi xatboshisiga O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-soni buyrug'i (ro'yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

"mukofotlar usuli" bo'yicha hisoblangan miqdor;

"to'lovlar usuli" bo'yicha hisoblangan miqdor.

9. "Mukofotlar usuli" bo'yicha miqdor umumiy sug'urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyentni o'tgan o'n ikki oy mobaynida barcha sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalarini bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari summasidan ushbu davr mobaynida tuzilgan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalarining bekor qilinishi (shartlari o'zgarishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga (qayta sug'urta qildiruvchilarga) qaytarilgan sug'urta mukofotlarini chegirib qolib aniqlangan miqdorning 20 foiziga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Bunda 11 va 13 klasslarga oid sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari 50 foizga oshiriladi.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) birinchi marotaba belgilangan tartibda sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan vaqtdan so'ng hisobot sanasigacha o'n ikki oydan kam vaqt o'tgan bo'lsa, hisob-kitobni amalga oshirishda litsenziya olingan vaqtdan hisobot sanasigacha bo'lgan davrni hisob davri sifatida qo'llaydi.

10. "To'lovlar usuli" bo'yicha miqdor, umumiy sug'urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyentni quyidagi ko'rsatkichlar summasining 10 foizini tashkil etuvchi miqdorga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi:

o'tgan o'ttiz olti oy mobaynida sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta tovonlari summasi. Bunda 11 va 13 klasslarga oid sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonlari 50 foizga oshiriladi;

hisobot sanasiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi. Bunda 11 va 13 klasslarga oid sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi 50 foizga oshiriladi.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) birinchi marotaba belgilangan tartibda sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan vaqtdan so'ng hisobot sanasigacha o'ttiz olti oydan kam vaqt o'tgan bo'lsa, hisob-kitobni amalga oshirishda litsenziya olingan vaqtdan hisobot sanasigacha bo'lgan davrni hisob davri sifatida qo'llaydi.

11. Umumiyligi sug'urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyent o'tgan o'ttiz olti oy mobaynida hisoblangan sug'urta tovonlaridan qayta sug'urtalovchilarining ulushlarini chegirib qolning summani o'tgan o'ttiz olti oy mobaynida hisoblangan sug'urta tovonlari summasiga nisbatida hisoblanadi. Umumiyligi sug'urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyent 0,5 dan kam bo'lishi mumkin emas. Agar hisob-kitob natijasida aniqlangan kattalik 0,5 dan kam bo'lsa, hisob-kitobni amalga oshirishda umumiyligi sug'urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyent sifatida 0,5 qabul qilinadi.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) birinchi marotaba belgilangan tartibda sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan vaqtdan so'ng hisobot sanasigacha o'ttiz olti oydan kam vaqt o'tgan bo'lsa, hisob-kitobni amalga oshirishda umumiyligi sug'urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyent sifatida 1,0 qabul qiladi.

12. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun to'lov qobiliyati marjasining normativ miqdori bo'lib, quyidagi miqdorlarning eng kattasi hisoblanadi:

#### *Oldingi tahririga qarang.*

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjalari muvofiq sug'urtalovchi uchun belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori;

(12-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliyavazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-soni **buyrug'i** (ro'yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

quyidagi ikki miqdorning yig'indisi:

a) mukofotlar zaxirasining 5 foizini hayotni sug'urta qilish sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyentga ko'paytmasi;

b) umumiyligi sug'urta sohasining 1 va 2 klasslari uchun tuzatuvchi koeffitsiyentni (mazkur Nizomning **11-bandiga** muvofiq hisoblangan) quyidagi miqdorlarning eng kattasiga ko'paytmasi:

o'tgan o'n ikki oy mobaynida umumiyligi sug'urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari summasidan ushbu davr mobaynida tuzilgan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalarining bekor qilinishi (shartlari

o‘zgarishi) munosabati bilan sug‘urta qildiruvchilarga (qayta sug‘urta qildiruvchilarga) qaytarilgan sug‘urta mukofotlarini chegirib qolib aniqlangan miqdorning 20 foizi;

o‘tgan o‘ttiz olti oy mobaynida umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta tovonlari va hisobot sanasiga umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslarga oid xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi yig‘indisining 10 foizi.

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) birinchi marotaba belgilangan tartibda sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan vaqtidan so‘ng hisobot sanasigacha mos ravishda o‘n ikki yoki o‘ttiz olti oydan kam vaqt o‘tgan bo‘lsa, hisob-kitoblarni amalga oshirishda litsenziya olingan vaqtidan hisobot sanasigacha bo‘lgan davrni hisob davri sifatida qo‘llaydi.

Ushbu bandning “**b**” kichik bandi, agar hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchi umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslari bo‘yicha ham sug‘urta faoliyatini amalga oshiradigan bo‘lsa, qo‘llaniladi.

13. Hayotni sug‘urta qilish sohasi uchun tuzatuvchi koefitsiyent qayta sug‘urtalovchilarining mukofotlar zaxirasida ulushi chegirib qolning mukofotlar zaxirasining mukofotlar zaxirasiga nisbati sifatida hisoblanadi. Hayot sug‘urtasi sohasi uchun tuzatuvchi koefitsiyent 0,85 dan kam bo‘lishi mumkin emas. Agar hisob-kitob natijasida aniqlangan kattalik 0,85 dan kam bo‘lsa, hisob-kitobni amalga oshirishda hayotni sug‘urta qilish sohasi uchun tuzatuvchi koefitsiyent 0,85 sifatida qabul qilinadi.

14. To‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdori sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) o‘z mablag‘lari manbalarining summasidan quyidagi ko‘rsatkichlar summasini chegirish orqali aniqlanadi:

nomoddiy aktivlar, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarining 10 foizidan oshmagan miqdordagi sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) asosiy faoliyati uchun xarid qilingan dasturiy ta‘minot bundan mustasno (bu holatda dasturiy ta‘minot boshlang‘ich balans qiymati bo‘yicha hisobga olinadi);

ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi;

maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar;

ta’sischilar (aksiyadorlar) o‘rtasida taqsimlash uchun mo‘ljallangan taqsimlanma ga n foydaniq qismi;

ta’sischilarga, aksiyadorlarga va xodimlarga berilgan qarzlar, shuningdek ushbu qarzlar bo‘yicha jamg‘arilgan foizlar;

debitor-bog‘liq shaxslarning qarzlari;

sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida belgilangan to‘lov sanasidan uch oydan ko‘p muddat mobaynida sug‘urta qildiruvchilar (qayta sug‘urta qildiruvchilar) tomonidan to‘lanma ga n sug‘urta (qayta sug‘urta) mukofotlari;

berilgan kafolatlar;

soliq va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha debitorlik qarzlar.

### **III. Sug‘urtalovchilarining (qayta sug‘urtalovchilarining) alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori va majburiyatlar jaming yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori**

*Oldingi tahrirga qarang.*

15. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori, eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish bundan mustasno, sug‘urta zaxiralari va o‘z mablag‘lari manbalari summasining 20 foizidan oshmasligi shart. Eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish yuzasidan sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori sug‘urta zaxiralarini va o‘z mablag‘lari manbalari summasining 15 foizidan oshmasligi shart.

*(15-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 21-dekabrdagi 107-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1806-3, 29.12.2015-y.) tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 52-son, 650-modda)*

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi), agarda olingen majburiyatlarning normativdan ortgan qismi mazkur Nizomga muvofiq qayta sug‘urtalangan bo‘lsa, alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha mazkur bandning **birinchi xatboshida** ko‘rsatilgan normativdan ortiq miqdorda majburiyatlarni olishga haqli.

Bosh polis bo‘yicha sug‘urta amalga oshirilganda, sug‘urtalovchining alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatları miqdori bosh polisning amal qilish doirasiga kiruvchi har bir sug‘urta polisi bo‘yicha hisoblanadi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

16. Umumiy sug‘urta sohasida yoki faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalgा oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) majburiyatları jamining miqdori o‘z mablag‘lari manbalari summasining 200 foizidan oshmasligi shart. Bunda eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha alohida hisoblangan sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) majburiyatları jamining miqdori o‘z mablag‘lari manbalari summasining 150 foizidan oshmasligi shart.

(16-bandning **birinchi xatboshisi** O‘zbekiston Respublikasi moliva vazirining 2015-yil 21-dekabrdagi 107-sonli *buyrug‘i* (ro‘yxat raqami 1806-3, 29.12.2015-y.) tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 52-son, 650-modda)

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi), agarda olingen majburiyatlarning normativdan ortgan qismi mazkur Nizomga muvofiq qayta sug‘urtalangan bo‘lsa, majburiyatlar jamining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori bo‘yicha mazkur bandning **birinchi xatboshida** ko‘rsatilgan normativdan ortiq miqdorda majburiyatlarni olishga haqli.

### **IV. Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablar**

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

17. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariiga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) o‘z mablag‘lari manbalari summasining 50 foizi miqdori bilan chegaralanadi, oldingi moliyaviy yil yakuni bo‘yicha xalqaro auditning ijobjiy xulosasini olgan tijorat banklarining ustav kapitallarida ishtirot etish bundan mustasno.

(17-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli *buyrug‘i* (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

18. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirot etish ulushi ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalining 30 foizidan oshmasligi shart (agar qonunchilik hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa), sug‘urta faoliyatni, sug‘urta faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan faoliyatni, shuningdek mulk huquqi asosida sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) tegishli bo‘lgan xizmat binolaridan foydalanish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sho‘ba korxonalar (sho‘ba xo‘jalik jamiyatları) bundan mustasno.

(18-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli *buyrug‘i* (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

19. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) aktivlari ko‘chmas mulk obyektlariga joylashtirilganda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarining 50 foizidan ortig‘ini bitta yer uchastkasi yoki ko‘chmas mulkning boshqa obyektiga yoxud bitta obyekt sifatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yer uchastkalari va ko‘chmas mulk obyektlari majmuiga joylashtirishga yo‘l qo‘ymaydi.

20. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) aktivlarini bank omonatlariga (depozitlariga) joylashtirishda, bitta tijorat bankiga joylashtirilgan omonat sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarining 40 foizidan oshmasligi shart.

21. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) aktivlarini kredit tashkilotlarida (tijorat banklaridan tashqari) omonatlarga (depozitlarga) joylashtirishda, omonatlarning (depozitlarning) umumiy summasi sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarining 10 foizidan oshmasligi shart.

### *Oldingi tahririga qarang.*

22. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda ishtirok etish bo‘yicha boshqa huquqlari, agar qonunchilik hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarining 30 foizidan oshmasligi shart.

(22-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

23. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarini quyidagi yo‘llar bilan joylashtirish taqiqlanadi:

intellektual mulkka qo‘yilmalar (dasturiy ta’milot, ma’lumotlar bazasi, adabiyot, firma nomlari va tovar belgilarini xarid qilish bundan mustasno);

mazkur Nizomda nazarda tutilgan hollardan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarz shartnomasini tuzish (moliyaviy yordam berish).

24. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) o‘z ta’sischilari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek u bilan hayot sug‘urtasi shartnomasini tuzgan sug‘urta qildiruvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarzlar berishga haqli. Bunda berilgan qarzlarning umumiyligi summasi sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi shart.

25. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) o‘z mablag‘lari manbalari summasining 30 foizidan oshgan hajmdagi qarzlarini (moliyaviy yordamni) faqat Davsug‘urtanazoratni xabardor etgandan so‘nggina, olishga haqli.

26. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) kassa va/yoki hisob (valyuta) va boshqa bank raqamlarida o‘tgan o‘n ikki oy mobaynida hisoblangan sug‘urta tovonlari summasining 3 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda pul mablag‘lariga ega bo‘lishi shart.

27. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan bog‘liq shaxslarga imtiyozli shartlarni taqdim etish taqiqlanadi. Imtiyozli shartlarni taqdim etish quyidagilarni anglatadi:

mohiyati, maqsadi, o‘ziga xos xususiyatlari va tavakkalchiligiga ko‘ra, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) boshqa shaxslar bilan, agar ular bilan alohida munosabatlar bo‘lmagan taqdirda, tuzmaydigan bitimni tuzishi;

sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) foydasiga boshqa mijozlardan talab qilinadigan summalardan kam bo‘lgan foizlarni, badallarni undirish, investitsiyalarning ta’miloti sifatida garovga qabul qilish, shuningdek, boshqa to‘lovlarni qabul qilish;

yeterli asoslarsiz investitsiya mablag‘larining qaytarilishini kechiktirish.

28. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) bog‘liq shaxslar bilan faoliyatining ko‘rsatkichlari sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan bitta yoki barcha bog‘liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlar summasining sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) ustav kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi:

SA x 100%	US x 100%
SK = _____ UK	yoki SK = _____ UK , bu yerda:

SK — sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) barcha bog‘liq shaxslar bilan faoliyatining ko‘rsatkichlari;

SA — sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan bitta bog‘liq shaxsda joylashtirilgan aktivlar;

US — barcha bog‘liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlarning umumiyligi summasi;

UK — ustav kapitali.

### *Oldingi tahririga qarang.*

29. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan bitta bog‘liq shaxsda joylashtirilgan aktivlarning umumiyligi summasi, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) ustav kapitalining 15 foizidan oshmasligi shart, agar qonunchilik hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta

faoliyati, sug‘urta faoliyatini ta‘minlashga yo‘naltirilgan faoliyatni, shuningdek mulk huquqi asosida sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) tegishli bo‘lgan xizmat binolaridan foydalanish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sho‘ba korxonalar (sho‘ba xo‘jalik jamiyatlari) bundan mustasno.

(29-bandning bиринчи хатбосиши О‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan barcha bog‘liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlarning umumiyligi summasi sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) ustav kapitalining 100 foizidan oshmasligi shart, agar qonunchilik hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta faoliyati, sug‘urta faoliyatini ta‘minlashga yo‘naltirilgan faoliyatni, shuningdek mulk huquqi asosida sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) tegishli bo‘lgan xizmat binolaridan foydalanish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sho‘ba korxonalar (sho‘ba xo‘jalik jamiyatlari) bundan mustasno.

(29-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarni bog‘liq shaxslarda faqat sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatlari organi ruxsati bilan investitsiya qilinayotgan mablag‘larning likvidligi, foydaliligi va qaytarilishini, shuningdek mazkur Nizom talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan texnik-iqtisodiy asoslanish (biznes-reja) asosida joylashtirishga haqli.

30. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarini sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) dastlabki ikki yillik faoliyati davomida bog‘liq shaxslarda joylashtirish taqiqlanadi.

31. Xususiy mulk yoki unga bo‘lgan huquq garovga berilganda, kafolat berilganda yoxud balansda aks etmagan boshqa majburiyat qabul qilinganda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) 5 kundan kechikmagan muddatda Davsug‘urtana zoratni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

### **V. Qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablar**

32. Sug‘urtalovchilar tavakkalchiliklarni faqat ularda mavjud litsenziyada ko‘rsatilgan klasslar bo‘yicha qayta sug‘urta qilishga haqli.

33. Qayta sug‘urta qildiruvchi tavakkalchiliklarni faqat tasdiqlangan qayta sug‘urtalovchilarga qayta sug‘urtaga berishga haqli.

Tasdiqlangan qayta sug‘urtalovchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

a) faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega sug‘urtalovchi;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

b) sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega va ustav kapitalining shakllantirilgan qismi faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchi uchun sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan ustav kapitaliga ega sug‘urtalovchi;

(33-bandning “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

v) hisobot yili boshiga quyidagi reytinglardan biriga ega chet el sug‘urta tashkiloti:

“Moody’s Investors Services” (AQSh) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha “Vaa3”dan past bo‘lmagan;

“Standard & Poor’s Corporation” (AQSh) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha “VV+”dan past bo‘lmagan;

“Fitch, Inc” (Buyuk Birtaniya) agentligi tasnifi bo‘yicha “VV-”dan past bo‘lmagan;

“A.M. Best Company, Inc.” (AQSh) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha “V+”dan past bo‘lmagan;

“Ekspert-RA” (Rossiya Federatsiyasi) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha “A++”dan past bo‘lmagan.

34. Majburiyatlar chet el sug‘urta tashkilotlarda qayta sug‘urtalanganda, O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga qayta sug‘urtaga berilgan majburiyatlar hajmi sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) har bir alohida sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar hajmining 95 foizidan oshmasligi shart.

35. Majburiyatlar chet el sug‘urta tashkilotlarda qayta sug‘urtalanganda, o‘zida qoldirilgan ulushning eng kam miqdori sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) to‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdorining 5 foizidan ortiq yoki teng bo‘lishi shart, eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish va chet elga chiquvchi shaxslarni sug‘urta qilish shartnomalari bundan mustasno.

Bunda o‘zida qoldirilgan ulushning eng kam miqdorini hisoblash uchun sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) o‘tgan chorakdagi to‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdori qo‘llaniladi.

## **VI. To‘lov qobiliyati normativlari hisob-kitobini va sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etish tartibi va muddatlar**

### *Oldingi tahrirga qarang.*

36. Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) to‘lov qobiliyati normativlari hisob-kitobi va sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har chorak, chorak o‘tgandan keyingi oyning 25 sanasigacha Davsug‘urtana zoratga taqdim etishadi. Bunda yil yakuni bo‘yicha to‘lov qobiliyati normativlari hisob-kitobi va sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobot yildan keyingi yilning 15-fevralidan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan esa — 25-martidan kechikmagan holda taqdim etiladi.

(36-band O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 24-dekabrdagi 109-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1806-1, 27.12.2010-y.) tahririda —O‘R QHT, 2010-y., 52-son, 526-modda)

37. Umumiyligi sug‘urta sohasida yoki faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchining to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi hisob-kitobi mazkur Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq keltirilgan shakl bo‘yicha taqdim etiladi.

38. Hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchining to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi hisob-kitobi mazkur Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq keltirilgan shakl bo‘yicha taqdim etiladi.

39. Alovida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarning yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori va majburiyatlar jaming yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdoriga, hamda sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarini joylashtirishga oid talablarga rioya qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, mazkur Nizomning **3-ilovasiga** muvofiq keltirilgan shakl bo‘yicha taqdim etiladi, sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi hisob-kitobi va sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan bitta bog‘liq shaxs yoki barcha bog‘liq shaxslarga joylashtirilgan aktivlar summasi hisob-kitobi bundan mustasno.

40. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi hisob-kitobi mazkur Nizomning **4-ilovasiga** muvofiq keltirilgan shakl bo‘yicha taqdim etiladi.

41. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) bitta bog‘liq shaxs yoki barcha bog‘liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlari summasi hisob-kitobi mazkur Nizomning **5-ilovasiga** muvofiq keltirilgan shakl bo‘yicha taqdim etiladi.

42. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mazkur Nizomning **6-ilovasiga** muvofiq keltirilgan shakl bo‘yicha taqdim etiladi.

## **VII. To‘lov qobiliyati normativlariga va sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilmaslik oqibatlari**

43. Hisobot davridagi (chorak, yarim yil, 9 oy, 1 yil) faoliyat yakunlari bo‘yicha to‘lov qobiliyati marjasining yetarliliqi normativi 1 dan 0,5 gacha kamaygan taqdirda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) kamchilik aniqlangan sanadan boshlab o‘n kun ichida moliyaviy ahvolni sog‘lomlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqadi va Davsug‘urtanazoratga kelishish uchun taqdim etadi.

44. Chora-tadbirlar majmuasi kamchilik aniqlangan sanadan boshlab olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddat uchun ishlab chiqiladi va moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish tadbirlarini, muddati va ushbu tadbirdan kutilayotgan natijalari ko‘rsatilgan holda, o‘z ichiga olishi lozim. Chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish muddatining oxiriga rejalashtirilgan sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari hisob-kitobi chora-tadbirlar majmuasiga ilova qilinadi.

Chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda, sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) moliyaviy ahvolini eng qisqa muddatlarda sog‘lomlashtirishga olib keluvchi chora-tadbirlar ustuvor, deb qaralishi lozim.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

Chora-tadbirlar majmuasida ustav kapitali miqdorining o‘zgarishi, qayta sug‘urta qilish operatsiyalarining kengaytirilishi, tarif siyosatining o‘zgartirilishi, debitor va kreditor qarzlarning qisqartirilishi, aktivlar tuzilmasining o‘zgarishi, shuningdek to‘lov qobiliyatini saqlab turuvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa usullarning qo‘llanilishi ham nazarda tutilishi mumkin.

*(44-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxatraqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)*

45. Zarur hollarda, Davsug‘urtanazorat sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) vujudga kelgan holatning sabablarini o‘rganish va sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishga ko‘maklashish uchun o‘zining vakilini yuborish huquqiga ega.

46. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) rahbari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasi Davsug‘urtanazoratga ikki nusxada taqdim etiladi. Agar chora-tadbirlar majmuasida ustav kapitalini ta’sischilar (aksiyadorlar) mablag‘lari hisobidan o‘zgartirish nazarda tutilgan bo‘lsa, chora-tadbirlar majmuasi ta’sischilar bilan kelishilgan bo‘lishi kerak. Bunda chora-tadbirlar majmuasida ta’sischilar (aksiyadorlar) yig‘ilishi bayonining raqami va sanasi ko‘rsatiladi.

47. Taqdim etilgan chora-tadbirlar majmuasi va hisobotlarning tahlili asosida Davsug‘urtanazorat sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) moliyaviy ahvolni yaxshilash bo‘yicha maslahatlar beradi, shuningdek chora-tadbirlar majmuasida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qiladi.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

48. Hisobot davridagi (chorak, yarim yil, 9 oy, 1 yil) faoliyat yakunlari bo‘yicha to‘lov qobiliyati marjasining yetarliliqi normativi 0,5 dan kamaygan taqdirda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) litsenziyasi(lari)ning amal qilishi to‘xtatib turiladi yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.

*(48-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxatraqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)*

49. Sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining yo‘l qo‘yladigan eng ko‘p miqdori yoki majburiyatlar jamingning yo‘l qo‘yladigan eng ko‘p miqdori normativlari, hamda sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinma gan taqdirda, Davsug‘urtanazorat sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) yo‘l qo‘yliga n

kamchiliklarni eng qisqa, ammo sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) ko‘rsatmani olgan sanadan boshlab bir oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda bartaraf etishi to‘g‘risida ko‘rsatma beradi.

Kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilgandan so‘ng uch kun ichida, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) Davsug‘urtanazoratga tegishli hisob-kitoblar va kamchiliklarni bartaraf etilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni taqdim etishi shart.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

50. Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan mazkur Nizomda belgilangan normativ va talablarga rioya qilinmagan, moliyaviy ahvolni sog‘lomlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rilmagan, sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish chora-tadbirlar majmuasida ko‘zda tutilgan natijalarga belgilangan muddatda erishilmagan taqdirda, belgilanga n muddatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risidagi Davsug‘urtanazorat ko‘rsatmasini bajarmagan taqdirda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) litsenziyasining amal qilishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.

(50-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA

### *Oldingi tahrirga qarang.*

**ning**

umumi y Sug‘urta sohasida yoki faqat qayta Sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan Sug‘urtalovchining to‘liq nomi

### 200\_\_ yil “\_\_” holatiga to‘lov qobiliyati marjasining yetariligi normativi **HISOB-KITOBI**

T/r	Normativning nomi	Miqdor (ming so‘m)
1.	Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq Sug‘urtalovchi uchun belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori	
2.	Qayta Sug‘urtalovchilarning ulushlarini chegirib qolning o‘tgan o‘ttiz olti oy mobaynida hisoblangan Sug‘urta tovonlari summasi	
3.	O‘tgan o‘ttiz olti oy mobaynida hisoblangan Sug‘urta tovonlari summasi	
4.	Umumi y Sug‘urta sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyent (2-satr miqdorining 3-satr miqdoriga nisbati, 0,5 dan kam bo‘lmasligi shart)	
5.	O‘tgan o‘n ikki oy mobaynida barcha Sug‘urta (qayta Sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan Sug‘urta mukofotlari summasi	
6.	O‘tgan o‘n ikki oy mobaynida 11 va 13 klasslarga oid Sug‘urta (qayta Sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan Sug‘urta mukofotlari summasining 50 foizi	
7.	O‘tgan o‘n ikki oy mobaynida tuzilgan Sug‘urta (qayta Sug‘urta qilish) shartnomalarining bekor qilinishi (shartlari o‘zgarishi) munosabati bilan Sug‘urta qildiruvchilarga (qayta Sug‘urta	

	qildiruvchilarga) qaytarilgan sug‘urta mukofotlari summasi	
8.	5 va 6-satrlar miqdorlarining yig‘indisidan 7-satr miqdorini chegirib qolib aniqlangan natijaning 20 foizi	
9.	“Mukofotlar usuli” bo‘yicha hisoblangan miqdor (4-satr miqdorini 8-satr miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblangan miqdor)	
10.	O‘tgan o‘ttiz olti oy mobaynida 11 va 13 klasslarga oid sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta tovonlari summasining 50 foizi	
11.	Hisobot sanasiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining miqdori	
12.	Hisobot sanasiga 11 va 13 klasslarga oid sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini miqdorining 50 foizi	
13.	3, 10, 11 va 12-satrlar miqdorlari yig‘indisining 10 foizi	
14.	“To‘lovlar usuli” bo‘yicha hisoblangan miqdor (4-satr miqdorini 13-satr miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblangan miqdor)	
15.	To‘lov qobiliyati marjasining normativ miqdori (1, 9 va 14-satrlarning miqdorlaridan eng kattasi)	
16.	O‘z mablag‘lari manbalarining summasi (buxgalteriya balansi passiv qismining birinchi bo‘limi bo‘yicha jami summasi)	
17.	Nomoddiy aktivlar summasi, sug‘urtalovchi aktivlarining 10 foizidan oshmagan miqdordagi sug‘urtalovchining asosiy faoliyati uchun xarid qilingan dasturiy ta’milot bundan mustasno	
18.	Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi summasi	
19.	Maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlar uchun zaxiralar summasi	
20.	Ta’sischilar (aksiyadorlar) o‘rtasida taqsimlash uchun mo‘ljallangan taqsimlanmagan foyda qismining summasi	
21.	Ta’sischilarga, aksiyadorlarga va xodimlarga berilgan qarzlar, shuningdek ushbu qarzlar bo‘yicha jamg‘arilgan foizlar summasi	
22.	Debitor — bog‘liq shaxslarning qarzları summasi;	
23.	Sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida belgilangan to‘lov sanasidan uch oydan ko‘p muddat mobaynida sug‘urta qildiruvchilar (qayta sug‘urta qildiruvchilar) tomonidan to‘lanmagani sug‘urta (qayta sug‘urta) mukofotlari summasi	

24.	Soliq va boshqa majburiy to‘lovlар bo‘yicha debitorlik qarzlar summasи	
25.	Berilgan kafolatlar summasи	
26.	17-dan 25-gacha bo‘lgan satrlar miqdorlarining yig‘indisi	
27.	To‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdori (16-satr miqdordan 26-satr miqdorining chegirish orqali aniqlanadi)	
28.	To‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi (27-satr miqdorining 15-satr miqdoriga nisbati)	

Chora-tadbirlar majmuasi ilova qilinadi / qilinmaydi (kerak bo‘lmaganini chizib uchiring).

Mazkur shakkda berilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarining to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi **nizom** talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining  
rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

M.O‘.

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i  
(ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y.,  
10/21/3338/1117-ton)

Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarining to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi **nizomga**  
**2-ILOVA**

*Oldingi tahririga qarang.*

ning

(hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**200\_\_ yil “\_\_” holatiga  
to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi  
HISOB-KITOBI**

T/r	Normativning nomi	Miqdor (ming so‘m)
1.	Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug‘urtalovchi uchun belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori	
2.	Qayta sug‘urtalovchilarining mukofotlar zaxirasida ulushi chegirib qolningan mukofotlar zaxirasi miqdori	
3.	Mukofotlar zaxirasi miqdori	
4.	Hayotni sug‘urta qilish sohasi uchun tuzatuvchi koeffitsiyent (2-satr miqdorining 3-satr miqdoriga nisbati, 0,85 dan kam bo‘lmasligi shart)	
5.	3-satr miqdorini 4-satr miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblangan miqdorning 5 foizi	
6.	Qayta sug‘urtalovchilarining ulushlarini chegirib qolningan o‘tgan o‘ttiz olti oy mobaynida umumiyl	

	sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta tovonlari summasi	
7.	O‘tgan o‘ttiz olti oy mobaynida umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta tovonlari summasi	
8.	Umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslari uchun tuzatuvchi koeffitsiyent (6-satr miqdorining 7-satr miqdoriga nisbati, 0,5 dan kam bo‘lmasligi shart)	
9.	O‘tgan o‘n ikki oy mobaynida umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari summasi	
10.	O‘tgan o‘n ikki oy mobaynida umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid tuzilgan sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalarining bekor qilinishi (shartlari o‘zgarishi) munosabati bilan sug‘urta qildiruvchilarga (qayta sug‘urta qildiruvchilarga) qaytarilgan sug‘urta mukofotlari summasi	
11.	9-satr miqdordan 10-satr miqdorini chegirib qolib aniqlangan natijaning 20 foizi	
12.	Hisobot sanasiga umumiy sug‘urta sohasining 1 va 2 klasslariga oid xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining miqdori	
13.	7 va 12-satrlar miqdorlari yig‘indisining 10 foizi	
14.	11 va 13-satrlarning miqdorlaridan eng kattasi	
15.	8-satr miqdorini 14-satr miqdoriga ko‘payti♦ish yo‘li bilan hisoblangan miqdor	
16.	5 va 15-satrlar miqdorlari yig‘indisi*	
17.	To‘lov qobiliyati marjasining normativ miqdori (1 va 16-satrlarning miqdorlaridan eng kattasi)	
18.	O‘z mablag‘lari mambalarining summasi (buxgalteriya balansi passiv qismining birinchi bo‘limi bo‘yicha jami summasi)	
19.	Nomoddiy aktivlar summasi, sug‘urtalovchi aktivlarining 10 foizidan oshmagan miqdordagi sug‘urtalovchining asosiy faoliyati uchun xarid qilingan dasturiy ta’milot bundan mustasno	
20.	Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi summasi	
21.	Maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlar uchun zaxiralar summasi	
22.	Ta’sischilar (aksiyadorlar) o‘rtasida taqsimlash uchun mo‘ljallangan taqsimlanmagan foyda qismining summasi	

23.	Ta'sischilarga, aksiyadorlarga va xodimlarga berilgan qarzlar, shuningdek ushbu qarzlar bo'yicha jamg'arilgan foizlar summasi	
24.	Debitor-bog'liq shaxslarning qarzlari summasi;	
25.	Sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida belgilangan to'lov sanasidan uch oydan ko'p muddat mobaynida sug'urta qildiruvchilar (qayta sug'urta qildiruvchilar) tomonidan to'lanmagan sug'urta (qayta sug'urta) mukofotlari summasi	
26.	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha debitorlik qarzlar summasi	
27.	Berilgan kafolatlar summasi	
28.	19-dan 27-gacha bo'lgan satrlar miqdorlarining yig'indisi	
29.	To'lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdori (18-satr miqdoridan 28-satr miqdorining chegirish orqali aniqlanadi)	
30.	To'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi (29-satr miqdorining 17-satr miqdoriga nisbati)	

Chora-tadbirlar majmuasi ilova qilinadi / qilinmaydi (kerak bo'lmanagini chizib uchiring).

Mazkur shaklda berilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va to'liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi **nizom** talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug'urtalovchi ijro etuvchi organining  
rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

M.O'.

\* 5-dan 15-gacha bo'lgan satrlar, faqat hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchi umumiyligi sug'urta sohasining 1 va 2 klasslari bo'yicha ham sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan bo'lsa, qo'llaniladi.

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-ton)

Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi **nizomga**  
**3-ILOVA**

*Oldingi tahrirga qarang.*

ning

(sug'urtalovchi/qayta sug'urtalovching to'liq nomi)

**200\_\_ yil “\_\_” holatiga**

**alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori va majburiyatlar jaming yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori normativlariga rivoja qilganligi hamda sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini joylashtirishga oid talablarga rivoja qilganligi to'g'risida**

**MA'LUMOTLAR**

T/r	Normativning nomi	Miqdor (ming so'm)	
		normativ	haqiqatda
1.	Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining eng ko‘p miqdori, eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish bundan mustasno		
1 <sup>1</sup> .	Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish yuzasidan alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining eng ko‘p miqdori		
2.	Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) beshta eng yirik alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining eng ko‘p miqdori		
2 <sup>1</sup> .	Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish yuzasidan beshta eng yirik alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining eng ko‘p miqdori		
3.	Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi		
4.	Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarini bitta yer uchastkasi yoki ko‘chmas mulkning boshqa obyektiga yoxud bitta obyekt sifatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yer uchastkalari va ko‘chmas mulk obyektlari majmuiga joylashtirishining eng ko‘p miqdori		
5.	Bitta tijorat bankiga joylashtirilgan eng ko‘p omonat (depozit)		
6.	Kredit tashkilotlariga (tijorat banklaridan tashqari) joylashtirilgan omonatlarning (depozitlarning) umumiy summasi		
7.	Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda boshqa ishtiroy etish huquqi		
8.	Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) ta’sischilarli, aksiyadorlari va xodimlariga berilgan, shuningdek, u bilan hayot sug‘urtasi shartnomasini tuzgan sug‘urta qildiruvchilarga berilgan ushbu		

	shartno♦alar bilan kafolatlangan qarzlarning umumiy summasi		
9.	Jalb etilgan qarzning (moliyaviy yordamning) eng ko‘p miqdori		
10.	Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) kassa va/yoki hisob (valyuta) va boshqa bank raqamlaridagi pul mablag‘lari, shuningdek, ularga tenglashitirilgan mablag‘lar		

Mazkur shaklda berilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi **nizom** talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining rahbari  
lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

M.O‘.

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 21-dekabrdagi 107-sonli buyrug‘i  
(ro‘yxat raqami 1806-3, 29.12.2015-y.) tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 52-son, 650-modda)

Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi **nizomga**  
**4-ILOVA**

ning

(sug‘urtalovchi/qayta sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**200\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ holatiga**

**har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi  
HISOB-KITOBI**

Nº	Yuridik shaxsning nomi	Yuridik shaxsning ustav kapitali miqdori (ming so‘m)	Ustav kapitalda sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) ishtirok etish miqdori (ming so‘m)	Ustav kapitalda sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) ishtirok etish ulushi (%)
1.				
2.				
3.				
4.				
...				

Mazkur shaklda berilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi **nizom** talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi  
organining rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

M.O‘.

Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizomga  
5-ILOVA

ning

(sug‘urtalovchi/qayta sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**200\_yil “ ” holatiga**

**bitta bog‘liq shaxs yoki barcha bog‘liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlari summasi**  
**HISOB-KITOBI**

Nº	Bog‘liq shaxs (nomi yoki F.I.Sh.)	Joylashtirish turi	Qo‘yilmaning daromadliligi (yillik foizlarda)	Joylashtirilgan aktivlar summasi	Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining)bog‘liq shaxslar bilan faoliyatining ko‘rsatkichi (%)	Normativ (%)
1.						
2.						
3.						
...						
	Jami					100

Mazkur shaklda berilgan ma’lumotlarning to‘g‘riliqi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

M.O‘.

Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizomga  
6-ILOVA

ning

(sug‘urtalovchi/qayta sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**200\_yil “ ” holatiga**

**qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilganligi to‘g‘risida**  
**MA’LUMOTLAR**

1-jadval

Ko‘rsatkichning nomi	Qator raqami	Miqdor, ming so‘m, AQSh dollari, boshqa	Izoh
O‘zida qoldirilgan ulushning eng kam miqdori (majburiyatlar chet el sug‘urta tashkilotlarida qayta sug‘urta langanda), eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish va chet elga chiquvchi shaxslarni sug‘urta qilish shartnomalari bundan mustasno	1		

Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) o‘tgan chorakdagи to‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdori	2		
1-qatorning 2-qatorga nisbati (%)	3	%	Yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdor 5%
O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga qayta sug‘urtaga berilgan har bir alohida sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning eng ko‘p hajmi	4	%	Yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdor 95%

## 2-Jadval

No	Sug‘urtalovchining/ qayta sug‘urtalovchining nomi (kimga qayta sug‘urta qilishga berilgan)*	Moliyaviy barqarorlik reytingi (reyting agentligining nomini ko‘rsatgan holda)	Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) mamlakati	Qayta sug‘urtaga berilgan sug‘urta majburiyatlari hajmi (ming so‘m, AQSh dollarlari, boshqa)	Qayta sug‘urtaga berilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari hajmi (ming so‘m, AQSh dollarlari, boshqa)	Qayta sug‘urtaga berilgan sug‘urta majburiyatlari umumiy hajmidagi qayta sug‘urtalovchining ulushi (%)
1	2	3	4	5	6	7
1.						
2.						
3.						
...	Jami					

Mazkur shaklda berilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi **nizom** talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining rahbari  
lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

M.O‘.

\* Sug‘urta brokeri orqali qayta sug‘urta qilinganda uning nomi va ulushi ko‘rsatiladi, qayta sug‘urtalovchilar to‘g‘risidagi ma’lumot ushbu jadvalga, mazkur shaklga muvofiq ilova qilinadi.

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 20-21-sod, 178-modda; 2010-y., 52-sod, 526-modda; 2014-y., 46-sod, 554-modda; 2015-y., 52-sod, 650-modda; 2017-y., 29-sod, 714-modda;  
Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-sod)